O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
rektori M.E.Po‘latov
2024 yil «29» 08

Ro‘yxatga olindi: №MD-71010401-1.06
2024 yil “29” 08

BOJXONA ISHI

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000 000	– Xizmatlar
Ta’lim sohasi:	1010 000	– Xizmat ko‘rsatish sohasi
Magistratura mutaxassisligi:	71010401	– Logistika

Samarqand – 2024

Fan/modul kodi BOJI1205	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 2	Kreditlar 5
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4

1.	**Fanning nomi**	**Auditoriya mashg’ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta’lim (soat)**	**Jami yuklama (soat)**
	Bojxona ishi	60	90	150

2.

I. Fanning mazmuni

Bugungi kundagi iqtisodiyot tarkibini tubdan o‘zgartirish, uni diversifikasiyalash va modernizasiya qilish, islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish sharoitida marketing sohasidagi andozalarni mamlakatimiz ta’lim tizimida qo‘llash bo‘yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro savdoni globallashuvi tashqi savdo siyosati vositalaridan foylanishni yanada takomillashtirishni, ya’ni xalqaro savdoni tartibga solishda notarif usullaridan tarif usullariga o‘tishni taqazo etayapti. Bu esa tarif usullarining bevosita amaliyotda qo‘llovchi bojxona ishini, uning asosiy tashkil etuvchilarini, asosiy tamoiyllari va qoidalarini o‘rganishga bo‘lgan e’tiborni oshiradi.

3.

O‘QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

«Bojxona ishi» fanini o‘qitishdan maqsad talabalarda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda bojxona ishini tutgan o‘rni, bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o‘tkazishni, ulardan bojxona qonunchiligida belgilangan bojxona to‘lovlarini undirilishini obyektivligini ta’minlashni, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurashni, bojxona ishi bo‘yicha xalqaro hamkorlikni, bojxona xizmati uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni, mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishidagi ahamiyati to‘g’risida, nazariy va amaliy bilimlar hosilqilishdan iboratdir. Fanni o‘qitilishining asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanishini, xalqaro hamjamiyat bilan o‘zaro savdo iqtisodiy aloqalarini kengayishi sharoitida respublikamiz bojxona organlarining faoliyatini Jahon amaliyotida qabul qilinan me’yorlar asosida takomillashtirishni zarurligi to‘g’risida talabalarda ilmiy izlanishlar olib borishga qiziqish uyg’otish.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)

II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu Bojxona ishi fanining predmeti va vazifalari.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi xalqaro iqtisodiy munosobatlarni davlat tomonidan tartibga solish ahamiyatini oshirib bormoqda.

Ushbu faoliyatning asosiy yo'nalishi milliy chegaralardan tovar va yuk tashish transportlarning o'tishini nazorat qilish bilan bog'liq, ya'ni bojxona xizmatlarini takomillashtirish bilan bog'liq. Ushbu faoliyatning samaradorlik xar bir korxona yoki tashqi iqtisodiy aloqalar subyekti tomonidan bojxona qoidalariga qat'iy rioya qilishga bevosita bog'liqdir. Shu sababli «Bojxona ishi», asosiy maqsadlariga bo'lajak mutaxassislarga tovarlar, xizmatlar eksporti va import jarayonida vujudga keladigan munosobatlarni o'rganish kiradi.

Fanni o'zlashtirishda yangi texnologiyalardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliyot darslarida interaktiv usullardan, turistik mahsulotlar, mexmonxona dizayin, marketing-axborot ko'rsatkichlari, mexmonxonalar ifodalangan plakatlar, bukletlar, slaydlar, videoma'ruzalar, rangi rasm va jadvallardan foydalaniladi.

2-mavzu. Bojxona tarixi

Bojxona faoliyatiga oid qonunlar. Bojxona kodeksi. Bojxona xududi va bojxona chegarasi tushunchasi. Bojxona faoliyatining tashkil etilishi. Bojxona xizmatlari tizimi. Chegara qo'shinlari. Davlat bojxona xizmati vazifalari. Bojxona xizmat vazifalarining joylarda bajarilishini ta'minlash. Bojxona organlarining huquqlari. Bojxona organlarining majburiyatlari.

Bojxonaning davlat byudjetini shakllantirishdagi o'rni. Bojxonaning valyuta zaxiralarini yaratish va milliy boyliklarni saqlab qolishdagi o'rni .

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bojxona siyosati iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlash manfaatlari, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadlarida olib boriladi. Masalan, olib kiriladigan mashina va asbob uskunalar, kimyoviy tovarlar va materiallardan eng kam stavkalarda bojlar undirilgan. Qishloq xo_jaligi mahsulotlari, odatda bojsiz import qilingan. Kiyim - bosh va uy ro_zgor buyumlariga oshirilgan stavkalar qo'llanilgan. Zeb-ziynat va alkagolli ichimliklarga eng yuqori stavkalarda boj undirilgan.

3-mavzu. O'zbekiston respublikasining bojxona siyosati

Bojxona siyosatining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida samarali bojxona nazoratini hamda tovarlar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iboratdir.

Bojxona siyosatini ishlab chiqish vakolati Oliy Majlisga tegishlidir. Bu dunyo davlatchiligi amaliyotiga to'liq muvofiq keladi. Ushbu amaliyotga muvofiq, davlat siyosatini belgilash huquqi davlat hokimiyatining qonunchilik bazasida mustahkamlangan. Bojxona siyosatiga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Bojxona siyosati - bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni dinamik amalga oshirish maqsadida mamlakat ichida va tashqi iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirish va himoya qilishga qaratilgan bojxona siyosati sohasida qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish ko'rinishidagi chora-tadbirlar tizimidir.

4-Mavzu Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda bojxona yuk bayonnomasini qo'llash.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan oldingi tartiblar (bojxona deklarasiyasi takdim etilgunga kadar) davlatlarning konun hujjatlari va bir kancha xalkaro hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ko'pincha chegarani kesib o'tgan va mamlakat bojxona hududiga kelgan transport vositalari va yuklar ular bojxona rasmiylashtiruvidan o'tiladigan va bojxona deklarasiyasi takdim etiladigan punktgacha muayyan yo'lni bosib o'tishlariga to'g'ri keladi. Yuklarni deklarasiyalash (bojxona deklarasiyasini takdim etish) – bojxona rasmiylashtiruvining majburiy tartibidir. Ko'pchilik davlatlarda deklarant (bojxona deklarasiyasini to'ldiruvchi va beruvchi shaxs) nafakat yuk egasi, balki uning nomidan yukni tasarruf kiluvchi, tovarlar va transport vositalarini bojxona nazoratidan va rasmiylashtiruvidan o'tkazish uchun bojxona organiga takdim kiluvchi boshka shaxs (transport agenti, bojxona brokeri va boshkalar) bo'lishi mumkinligini nazarda tutuvchi tartib amal kiladi.

5- Mavzu O'zbekiston respublikasi bojxona tizimi tuzilishi.

Bojxona ishini takomillashtirish, uning huquqiy negizini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish jarayoni uni tashkil etishga tizimli-tarkibiy, funksional o'zgartirishlar kiritishni taqozo etar edi. Shu sababli bojxona ishini tashkil qilishni yaxshilash, yagona bojxona siyosatini o'tkazish, respublika bojxona organlarining tezkorligini hamda ular faoliyatining amaradorligini oshirish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda ularning rolini kuchaytirish.

Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparat, DBQB, IBK yuridik shaxs hisoblanadilar, bank muassasalarda hisob-kitob, joriy va boshqa hisobvaraqalariga, shu jumladan valyuta hisobvaraqalariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladilar.

Davlat boshqaruvi organining tashkiliy tuzilmasi (ichki tuzilma) – uning huquqiy va tashkiliy jihatidan nisbatan mustaqil va alohida, o'zaro bog'liq bo'linmalarining jamidir,ularning har biri alohida va ular barchasi birgalikda bojxona organlari vakolatiga kiruvchi vazifalar hal etilishini ta'minlaydi.

6-mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi

Tovar nomenklaturasining umumiy tavsifi. Tovar va transport vositalarining bojxona nazoratida identifikasiyalash zarurati. O'zbekiston Respublikasida TIF tovar nomenklaturasining tutgan o'rni.Tovarlarning kodini aniqlash. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi. Uyg'unlashgan tovar nomenklaturasi tovar ishlab chiqarilgan mamlakat kodi. Tovar kodining asosiy bo'g'inlari: mamlakat, tovar guruhi, tovar turi, xususiyatlari, korxona kodi. Tovar nomenklaturasining qo'llanishi.

7-mavzu Bojxona nazorati tizimida ekspertiza.

Jismoniy shaxslar tomonidan olib o'tilayotgan tovarlarning bojxona nazorati. Chet el shaxslarga nisbatan bojxona nazoratini amalga oshirish.

Bojxona imtiyozlari va to'lovlarning stavkalari. Chet ellik shaxslarning

6. Pardayev T.N.,Suyunov A.M., Shadmankulov A.A." Bojxona qiymati" Toshkent- " Barkamol fayz media" 2016.
7. А.А. Демичев, А.С. Логинова " ОСНОВЫ ТАМОЖЕННОГО ДЕЛА", учебник Санкт-Петербург ИС «Интермедия» 2014
8. Налоги и налогообложение: учеб. /Под ред. И.А. Майбурова. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2010. – 559 с.
9. Никулкина И.В. Общая теория налогообложения: учеб. пособ. – М.: Ексмо, 2010. – 176 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Хайдаров В.Х. Международное таможенное право.-Т. Адолат, 2000
2. Додобоев Ю.Т.Таможенное право Республики Узбекистан част 2-Т, «Фан», 1999-131 с.
3. Додобаев Ю.Т., Ахмедов Д.К. Таможенный брокер. Т., КУНПСП, 2001 г.
4. "Soliq va bojxona habarlari" gazetasining joriy yildagi sonlari.

8. Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil "29" 08 dagi 1 - sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ FQ-07-33).

9. **Fan/modul uchun mas'ul:**

Sh.A.Musayeva – SamISI, "Marketing" kafedrasi professori., i.f.n.

10. **Taqrizchilar:**

Usmanov I.A. – SamDAQI "Qurilish iqtisodyoti va menejment" kafedrasi dotsenti

Soleyev B.B. – "TRAST KONTAKT BIZNES" XK direktori.

4.	**V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari** **Talaba bilishi kerak:** Ushbu faoliyatning asosiy yo'nalishi milliy chegaralardan tovar va yuk tashish transportlarning o'tishini nazorat qilish bilan bog'liq, ya'ni bojxona xizmatlarini takomillashtirish bilan bog'liq. Ushbu faoliyatning samaradorlik xar bir korxona yoki tashqi iqtisodiy aloqalar subyekti tomonidan bojxona qoidalariga qat'iy rioya qilishga bevosita bog'liqdir. Shu sababli «Bojxona ishi», asosiy maqsadlariga bo'lajak mutaxassislarga tovarlar, xizmatlar eksporti va import jarayonida vujudga keladigan munosobatlarni o'rganish kategoriyalari *bo'yicha* ***tasavvurga ega bo'lishi;*** **(bilim)** • Bojxona ishi samaradorligini baholash Media marketing kommunikasiyalari uchun texnologiyalar va vositalarni qo'llay ***bilishi va ulardan foydalana olishi;*** **(ko'nikma)** • Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazishni, ulardan bojxona qonunchiligida belgilangan bojxona to'lovlarini undirilishini obyektivligini ta'minlashni, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurashni, bojxona ishi bo'yicha xalqaro hamkorlikni, bojxona xizmati uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)**
5.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash;taqdimotlarni qilish; • individual loyilalar; • loyiha tahlili; • misol va masalalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.
7.	**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:** **Asosiy adabiyotlar.** 1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.: O'zbekiston, 2014 y. 40 bet. 2. O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2016 yil 27 yanvar. 3. O'zbekiston Respublikasining "Soliq maslahatiga oid faoliyat to'g'risida"gi Qonuni, -T.: Xalq so'zi, 2022 yil, 04 avgust. 4. "O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida" Qonun hujjatlari to'plami, 2022 yil. 5. Xasanov O.A., Karimqulov Q.M., Abdug'aniyev B.Yo., I.R.Asqarov Bojxona ekspertizasi Darslik Toshkent: «Fan va texnologiyalar markazi», 2012 yil, - 312 bet.

imtiyozga ega bo'lgan toifalarning turlari. Bojxona nazoratidagi imtiyozlar turlari. Boj imtiyozlarining berilish tarkibi. Diplomatiya vakolatxonalariga imtiyozlar. Delegasiya a'zolariga imtiyozlar. Valyuta siyosati va valyutani tartibga solish.

Tovaralar va transport vositalarini hisobga olish – bu nazoratning qo'llanishining asosiy sababi bojxona organi zimmasiga TIA statistikani yuritish yuklatilgan.

8-Mavzu Boj. Bojxona bahosi. Bojxona bahosini aniqlash.

Boj tarifi – bojxona chegarasidan olib o'tiladigan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) prinsiplari va qoidalariga muvofiq holda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalarining to'plamidir.

Boj - O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan tovarlar olib o'tilayotganda bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lov. O'zbekiston Respublikasida import boji, eksport boji, mavsumiy va alohida (maxsus, dempingga qarshi, kompensatsiya) boj qo'llaniladi.

9 mavzu. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tizimida tarif usullari.

Tashki iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni asosiy shakllaridan bo'lmish – tashki savdoni (eksport va import jarayenlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyesatini amalga oshirish va tashki savdoni tartibga solish chora tadbirlarini chikarishga, kullashga karatilgan buladi. Xar bir mamlakatdagi savdo siyesatida iqtisodiy, siyesiy, ma'muriy, tashkiliy xukukiy va boshka masalalar uzviy boglangandir. Savdo siyesatini tub moxiyatidan kelib chikkan xolda iqtisodiy masalalar asosiy xisoblanadi.

Mamlakatlar uz ichki bozorlarini ximoya kilish, chet el bozorlariga kuprok tovarlar chikarish maksadida tashki iqtisodiy faooliyatlarni savdo siyesatini mavjud vositalari yerdamida tartibga soladilar.

10.Mavzu. Xalqaro tashishlarda «inkoterms» atamalari.

INKOTERMS hujjati kompyuter (yelektron) axborotini ayirboshlashning yangi usullaridan foydalanish taraflarga turli hujjatlar (masalan, hisob varaq, fakturalar, bojxonada tozalash uchun hujjatlar, tovar yetkazib berilishini tasdiqlaydigan hujjatlar, shuningdek transport hujjatlari) berish imkoniyatini nazarda tutadi. Bundan tashqari, u yuk tashishlarning yangi texnologiyalarida, ayniqsa konteyner jo_natmalarini shakllantirishda multimodal (aralash) tashishlarda, hamda yuk avtomashinalari va temir yo'l vagonlarini dengiz va daryo kemalarida yetkazib berishda, tovar yetkazib berishlarning bir xillashtirilgan shartlaridan foydalanish imkoniyatini nazarda tutadi.

11-mavzu. Bojxona rejimlari.

Shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalarining xususiyati, miqdori, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgani yoki qaysi maqsadga mo'ljallanganligidan qat'iy nazar, istalgan rejimni tanlashga yoki uni boshqasiga o'zgartirishga haqli. Rejimlarning qo'llanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona

qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Rejim import bojlarini, soliqlarni va boshqa boj to_lovlarini to_lashni, iqtisodiy siyosat choralariga hamda boshqa chora-tadbirlarga rioya etishni nazarda tutadi. Bojxona kodeksida vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga kiritilgan tovarlar va transport vositalarini rasmiylashtirish masalalari keng yoritilmagan va juda qisqa ta'rif berilgan, moddalarda rasmiylashtirish qoidalari o'rganiladi.

12-Mavzu Bojxona to'lovlari

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishda va Bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa hollarda quyidagi bojxona to'lovlari to'lanadi. Boj tarifi to'g'risidagi qonun boj tarifini shakllantirish va qo'llanish tartibini, shuningdek O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlardan boj undirish qoidalarini belgilaydi. Boj tarifi to'g'risidagi qonunning asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiyoti bilan samarali integratsiyalashuvi uchun shart-sharoit yaratish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

13-Mavzu Bojxona statistikasi

Tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali boshqarish uchun tashqi iqtisodiy aloqalarni to'liq aks ettiruvchi ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasida asosan, mahsulotlar eksporti va importi, xizmatlar eksporti va importi, xalqaro moliyaviy operatsiyalar, shartnoma bo'yicha xorijda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanish, ishchi kuchi va turistlar harakati, shuningdek, xalqaro faoliyatning boshqa yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar to'planadi va qayta ishlanadi. statistika faqat bojxona chegarasini kesib o'tayotgan tovarlar va xizmatlar massasini hisobga oladi. Statistika bojxona chegarasini tijorat va notijorat maqsadlarda kesib o'tayotgan har qanday tovar massasini (vazni bo'yicha) hisobga oladi. Demak, mamlakat tomonidan olingan barcha insonparvarlik yordamlari importga, mamlakatdan berilayotgan barcha insonparvarlik yordamlari eksportga qo'shiladi.

14-Mavzu Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik.

Kontrabandaga bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzishlarga va O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga tegishli soliqlar va boshqa majburiy boj to'lovlarini to'lashdan bosh tortishga qarshi kurash funksiyasi O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining asosiy funksiyalaridan biri ekanligi qonun bilan mustahkamlangan. Yuqorida aytib o'tilgan funksiya bilan qonun hujjatlari tomonidan huquqni muhofaza qilish organlari sirasiga kiritilgan bojxona organlarining mavqyeini ham belgilab berilishi o'z funksional vazifalarini hal etishda bojxona organlarining huquqini kengaytiradi. Bojxona organlari bojxona bilan bog'liq huquqbuzarliklarga qarshi kurash vazifasini hal etib, bojxona haqidagi qonun huujjatlari buzilishiga barham berish maqsadida huquqiy majburlash, sanksiya usullarini qo'llaydilar.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Bojxona ishi fanining predmeti va vazifalari.
2. Bojxona tarixi
3. O'zbekiston respublikasining bojxona siyosati
4. Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda bojxona yuk bayonnomasini qo'llash.
5. O'zbekiston respublikasi bojxona tizimi tuzilishi.
6. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi
7. Bojxona nazorati tizimida ekspertiza.
8. Boj. Bojxona bahosi. Bojxona bahosini aniqlash.
9. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tizimida tarif usullari.
10. Xalqaro tashishlarda «inkoterms» atamalari.
11. Bojxona rejimlari.
12. Bojxona to'lovlar
13. Bojxona statistikasi
14. Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Bojxona ishini vujudga kelishi..
2. Bojxona siyosatining asosiy vazifalari va prinsiplari.
3. Bojga oid rasmiylashtirishni amalga oshirish tartibi joyi va vaqti.
4. Vaqtinchalik saqlash omborlarning turlari.
5. Davlat bojxona organlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorligi.
6. O'zbekiston Respublikasida TIF tovar nomenklaturasining tutgan o'rni.
7. Bojxona ekspertizasini o'tkazishda texnik vositalar va usullar.
8. Narkotik vositalarini bojxona ekspertizasi
9. Aynan bir xil tovaralar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab baholash.
10. Bojxona bojlarini shakllantirishda valyuta fondi va boshqa xalqaro mintaqaviy tashkilotlarining tutgan o'rni.
11. Tovarlar yetkazib berishning tijorat (bazis) shartlari.
12. Deklarantning huquq va majburiyatlari
13. O'zbekistonda bojxona rejimlari takomillashtirish masalalari.
14. Boj tarifini shakllantirishning mohiyati va xususiyatlari
15. Deklarasiyalash bojxona statistikasining asosiy manbai sifatida
16. Bojxona statistikasi ko'rsatkichlari
17. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik.
18. Kontrabanda tushunchasi va kontrabanda uchun javobgarlik.